



PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS AND AXIOLOGICAL WORLDVIEW

Dilnoza Innatovna Asadova

Senior Lecturer at the Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

dilnoza_asadova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Historical consciousness, axiological worldview, social consciousness, identity, value system, historical memory, gnoseology, philosophical reasoning, ideological selectivity, cultural heritage, post-totalitarian society.

Received: 25.09.25

Accepted: 26.09.25

Published: 27.09.25

Abstract: This article provides a profound socio-philosophical examination of the interrelation between historical consciousness and axiological worldview, framing them as foundational categories of contemporary social philosophy. The author conceptualizes these constructs not merely as determinants of social cognition, but as epistemic structures central to identity formation, cultural continuity, and ideological legitimation in post-totalitarian societies. Historical consciousness is analyzed as a reflexive modality through which societies internalize their past, incorporate it into the present cognitive landscape, and project future social orientations. In parallel, the axiological worldview is interpreted as a normative framework for value-based perception and critical evaluation of socio-cultural phenomena. Particular attention is given to the context of Uzbekistan, where these concepts undergo a transformation influenced by national revival, postcolonial reconstruction, and global dynamics. Through a critical lens, the article exposes the selective narration of history, declarative nature of value systems, and risks of ideological reductionism. Consequently, the study affirms the role of these categories as conceptual instruments for ensuring societal coherence, cultural resilience, and philosophical integrity in the modern world.

TARIXIY ONG VA AKSIOLOGIK DUNYOQARASH TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI

Dilnoza Innatovna Asadova

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

“Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi

dilnoza_asadova@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Tarixiy ong, aksiologik dunyoqarash, ijtimoiy ong, identitet, qadriyatlar, tarixiy xotira, gnoseologiya, falsafiy tafakkur, ideologik selektivlik, madaniy meros, posttotalitar jamiyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash tushunchalarining o‘zaro dialektik aloqasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Muallif ushbu fenomenlarni nafaqat ijtimoiy ongning determinativ mexanizmlari sifatida, balki jamiyatdagi identitet konstruksiyasi, ma’naviy barqarorlik va tarixiy legitimatsiya jarayonlarida hal qiluvchi epistemik strukturalar sifatida talqin qiladi. Tarixiy ong – bu jamiyatning o‘z tarixiy mavjudligini anglash, uni hozirgi ongiy maydonga integratsiyalash va kelajakni loyihalashdagi reflektiv vosita bo‘lib xizmat qiladi, aksiologik dunyoqarash esa qadriyatlar asosida ijtimoiy voqelikni idrok etish, baholash va normativ yo‘nalish berishning konseptual asosidir. Maqolada bu tushunchalarning O‘zbekiston sharoitida, xususan posttotalitar davrda va milliy tiklanish kontekstida qanday shakllanayotgani falsafiy, gnoseologik va ideologik mezonlar asosida tahlil qilinadi. Tanqidiy yondashuv orqali tarixiy ongning selektivligi, aksiologik dunyoqarashning deklarativligi va qadriyatlar sistemasi ichidagi ierarxik ziddiyatlar chuqur ochib beriladi. Shu tariqa, muallif ushbu tushunchalarni zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, g‘oyaviy yaxlitlik va madaniy vorislikni ta’minlovchi konseptual vosita sifatida nazariy asoslaydi.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И АКСИОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Дильноза Иннатовна Асадова

Старший преподаватель кафедры философии

Ташкентский государственный экономический университет

dilnoza_asadova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Историческое сознание, аксиологическое мировоззрение, общественное сознание, идентичность, система ценностей, историческая память, гносеология, философское мышление, идеологическая селективность, культурное наследие, посттоталитарное общество.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий философско-социальный анализ взаимосвязанности понятий исторического сознания и аксиологического мировоззрения как центральных категорий современного социального дискурса. Автор рассматривает эти феномены не только как эпистемологические структуры, определяющие общественное сознание, но и как концептуальные механизмы, обеспечивающие культурную преемственность, историческую легитимацию и формирование идентичности в условиях посттоталитарной трансформации. Историческое сознание здесь интерпретируется как рефлексивная способность общества осмысливать своё прошлое, интегрировать его в актуальное социокультурное поле и формировать ориентиры будущего. Аксиологическое мировоззрение, в свою очередь, выступает как система ценностного осмысления и нормативной оценки социореальности. Особое внимание уделяется процессам трансформации этих категорий в условиях Узбекистана, где историческая память и система ценностей формируются в контексте национального возрождения и глобализационных вызовов. Критический подход позволяет выявить селективность исторического нарратива, декларативность ценностных иерархий и угрозу идеологической стандартизации. В результате предлагается философская интерпретация данных понятий как ключевых теоретических основ социального равновесия и ментальной устойчивости общества.

Kirish. Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash zamonaviy ijtimoiy falsafaning markaziy tushunchalari qatoridan o‘rin egallaydi. Ushbu ikki tushuncha insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonidagi ong shakllanishi va qadriyatlar tizimining murakkab ichki dinamikasini anglashda muhim nazariy asoslarga ega. Tarixiy ong insoniyatning tarixiy voqealarni, madaniy tajribalarni, ijtimoiy jarayonlarni subektiv va kollektiv ong orqali qabul qilishi va talqin qilishi bilan bog‘liq

bo'lsa, aksiologik dunyoqarash esa mazkur tarixiy tajribaning qanday qadriyatlar asosida tushunilishi va baholanishi bilan bevosita aloqadordir[1].

Tarixiy ong faqatgina o'tgan voqealarni xotirlash emas, balki ularni zamonaviylik ruhida qayta talqin qilish, hozirgi ijtimoiy ongni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi epistemologik mexanizmdir. Ijtimoiy ong doirasida tarixiy ong jamiyatning o'z o'zini anglash shakli sifatida ishlaydi: u jamiyatning o'zini qanday tarixiy subekt sifatida tasavvur qilishi, o'z ildizlarini qanday aniqlashi va tarixni qanday aks ettirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[2]. Shu jihatdan, tarixiy ong bir vaqtning o'zida ham identitet konstruksiyasi, ham ijtimoiy taraqqiyotning ideologik asosidir. Mazkur tushunchaning aksiologik dunyoqarash bilan bog'liqligi esa qadriyatlarning tarixiy asoslangani, ular orqali tarixga berilgan baho va talqinlar shakllanishi bilan izohlanadi. Aksiologik dunyoqarash tarixiy ongni ideologik asoslarga yo'naltiruvchi tamoyillar majmuasini tashkil etadi. Har bir davr o'ziga xos aksiologik mezonlarga ega bo'lib, tarixiy faktlar aynan shu mezonlar asosida baholanadi. Masalan, milliy davlatchilik qadriyati kuchli bo'lgan ijtimoiy ong tarixiy voqealarni mustaqillik, milliy g'urur va istiqloq timsoli sifatida talqin qiladi. Aksincha, kosmopolitik yondashuvga asoslangan ong esa global tarixiy jarayonlarni umuminsoniy qadriyatlar kontekstida ko'radi[3].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolani yozishda tahliliy, tarixiy, sistemali yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy ong va ma'naviy immunitet tushunchalari kontseptual jihatdan o'rganildi, yoshlar bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlarda ularning qo'llanilishi real misollar asosida tahlil qilindi.

Tarixiy ongning shakllanishida kollektiv xotira muhim rol o'ynaydi. U Halbwachs (1950) ta'biri bilan aytganda, individual xotiraning ijtimoiy muhit orqali shakllanishidir. Kollektiv xotira tarixiy ongda qaysi voqealar muhim deb topilishi, qanday ideallar ularning asosida yotishi haqida tasavvur hosil qiladi. Bu tasavvurlar esa o'z navbatida aksiologik dunyoqarashni belgilaydi. Masalan, O'zbekistonda Amir Temur shaxsiyatining tarixiy xotirada markaziy o'rin egallashi – bu faqat tarixiy fakt emas, balki mustaqillik davri ongida shakllangan milliy qadriyatlar bilan bog'liq talqindir. Aksiologik dunyoqarashning ijtimoiy-falsafiy o'lchovi undagi normativlik va maqsadlilik funksiyalarida namoyon bo'ladi. Bu dunyoqarash jamiyat hayotida qanday qadriyatlar ustun bo'lishi, qanday axloqiy tamoyillarni bosh mezon sifatida tanlash kerakligi to'g'risida yo'l ko'rsatadi. Tarixiy ong bu jarayonda ma'lumot manbai, aksiologik dunyoqarash esa bu ma'lumotlarni baholovchi va yo'naltiruvchi mezondir. Demak, ular bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro dialektik bog'langan tushunchalardir.

Zamonaviy globalizatsiya jarayonlari bu ikki tushunchaning o'zaro aloqasini yanada murakkablashtirmoqda. Transmilliy axborot maydonining kengayishi natijasida tarixiy ongda ko'pparadigmallilik, aksiologik dunyoqarashda esa relativistik tendensiyalar kuchaymoqda. Bu esa

ijtimoiy ongda qadriyatlar pluralizmi, tarixiy talqinlarda esa turli ideologik anglashuvlar ziddiyatini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ijtimoiy falsafa ushbu murakkabliklarni hal etishda tanqidiy tafakkur, hermenevtik yondashuv va tarixiy-konstruktivistik metodologiyalarga murojaat etadi[4]. Shunday qilib, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning ijtimoiy-falsafiy tahlili insoniyatning tarixiy o'zini anglash jarayoni, qadriyatlar evolyutsiyasi va ijtimoiy ongning dinamik shakllanishini izohlashda chuqur nazariy asos yaratadi. Bu ikki tushuncha bir-birini yoritadi, to'ldiradi va tanqidiy tahlilga undaydi. Ularsiz jamiyatda ma'naviy barqarorlik, tarixiy adolat va ijtimoiy identitetning mustahkam asoslari shakllanishi qiyin.

Jamiyatning ma'naviy hayotida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash kabi tushunchalar faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lgan murakkab falsafiy fenomenlar hisoblanadi. Ular ijtimoiy ongning muhim shakllari sifatida inson va jamiyatning o'tmish, hozir va kelajak bilan bog'liq munosabatini, shuningdek, qimmat mezonlar orqali voqelikni baholash qobiliyatini belgilab beradi. Mazkur tushunchalarning falsafiy tahlili, ayniqsa, murakkab tarixiy-inqirozli davrlarni boshdan kechirgan jamiyatlar, jumladan, O'zbekiston sharoitida o'ta dolzarblik kasb etadi. Zero, mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyat tarixiy xotirani qayta ko'rib chiqish, o'z milliy qadriyatlarini tiklash va ular asosida yangi ijtimoiy-aksiologik paradigmalarni shakllantirish zarurati bilan yuzma-yuz keldi.

Tarixiy ong — jamiyatning o'tmish voqealari, shaxslar va jarayonlar haqidagi kollektiv va individual idroklar, mulohazalar va baholar majmuidir. U faqatgina tarixiy bilim emas, balki jamiyatning yodgorlik, an'ana, rasm-rusum, siyosiy va ma'naviy g'oyalar orqali shakllangan o'tmish haqidagi umumiy tasavvurlar tizimidir. Bunday tasavvurlar tarixiy voqelikning qayta yoritilishiga emas, balki jamiyatning uni qanday idrok etishiga bog'liq holda shakllanadi. Bu jihat Abdullajanova D.S. tomonidan ta'kidlangan bo'lib, u milliy tarixiy xotirani sub'ektiv emas, balki ijtimoiy va ma'naviy jarayonlar ta'sirida shakllanadigan ongiy tuzilma sifatida talqin etadi[5].

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1. Tarixiy ong yoshlarda milliy identitetni mustahkamlovchi asosiy manba hisoblanadi.
2. Ma'naviy immunitetni shakllantirishda tarixiy xotira va ajdodlar merosi muhim rol o'ynaydi.
3. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda tarixiy ongni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar hali ham to'liq rivojlanmagan.
4. Yoshlarni g'oyaviy tahdidlardan himoya qilishda tarixiy ong asosidagi immunitet eng samarali yo'l hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida tarixiy ong masalasi ikki asosiy kontekstda namoyon bo'ldi: birinchisi, mustaqillikdan keyingi siyosiy va mafkuraviy yangilanish jarayonida milliy tarixni qayta yoritish, ikkinchisi esa, bu jarayonning jamiyatning aksiologik ongiga ko'rsatgan ta'siridir.

Ilgari ta'lim va mafkura tizimida sotsialistik yondashuv ustuvor bo'lgan bo'lsa, yangi davrda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga urinishlar kuzatildi. Miraxmedov J.M. bu masalaga shunday yondashadi: "tarixiy ongni shakllantirish ma'naviy xavfsizlikning strategik poydevori bo'lib, u insonda Vatan, xalq va istiqlol g'oyalarini mustahkamlaydi"[6].

Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayonda qator ziddiyatlar ham mavjud bo'lib, ular tarixiy ongdagi "manipulyatsiya" holatlari, ya'ni muayyan siyosiy va mafkuraviy maqsadlarga mos ravishda tarixni qayta yoritish orqali yodgorliklarni selektiv qabul qilish holatlarida namoyon bo'ldi. Masalan, tarixiy voqealarning baholanishida muayyan etnotsentrizm yoki ideologik bir yoqlama yondashuvlar ustuvorlik qildi. Bu esa, aksiologik dunyoqarashda ham murakkab qarama-qarshiliklarni vujudga keltirdi. Haqiqiy tarixiy ong dunyoqarashni kengaytiradi, tanlab olingan, ideologik tarixiy ong esa uni kamaytirib, manipulyatsiya ob'ektlariga aylantiradi. Bu nuqtai nazarda I.G. Bagnoning ta'kidlashicha, tarixiy ongdagi transformatsiya jamiyatning sivilizatsion o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, yangi dunyoqarash va yangi aksiologik hududni talab etadi [7].

Aksiologik dunyoqarash esa insonning qadriyatlar asosida dunyoga munosabati, turmush tarzi va faoliyatidagi umumiy ma'nolar tizimidir. U jamiyatning ma'naviy ko'zgusidir. O'zbekiston misolida bu dunyoqarash yangi ma'naviy g'oya — milliy istiqlol g'oyasi asosida qayta shakllantirildi. Lekin bu jarayonda ham umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muayyan mafkuraviy keskinliklar kuzatildi. Bir tomondan, milliy qadriyatlar tiklandi, ikkinchi tomondan, ular ayrim hollarda modernizatsiya jarayonlariga zid bo'lib chiqdi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash faqat individual emas, balki institutsional jarayon sifatida ham namoyon bo'ladi. Jamiyatning ta'lim, madaniyat, siyosat, iqtisodiyot kabi sohalarida ular o'zaro ta'sir etib, ongiy holatlarni qayta shakllantiradi. O'zbekistonda bu jarayon, ayniqsa, ta'lim tizimida tarixiy ong va milliy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan yangi standartlar, darsliklar va o'quv kurslari orqali amalga oshirildi [6].

Tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni institutsional shakllantirishda muayyan standartlashuv, ma'lum darajada universallashtirish tendentsiyalari ham mavjud. Bu holat, ayniqsa, g'oyaviy-mafkuraviy yakkalikdan qochish, fikrlar plyuralizmini ta'minlash vazifalari yetarlicha bajarilmagan jamiyatlarda namoyon bo'ladi. Bunday holat tarixiy haqiqatni yoritishda sub'ektivlikka, qadriyatlar ierarxiyasini muayyan doiralar manfaatiga moslashtirishga olib keladi. Bu esa tarixiy ongni inkor etish emas, balki uning ichki ko'pqirralilik va ko'pta'riflilik xususiyatini yetarli darajada rivojlantirmaslik holatidir. Shunday qilib, O'zbekiston misolida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash faqatgina falsafiy nazariya emas, balki amaliy ijtimoiy jarayon sifatida ham tadqiq etildi. Bu tushunchalar o'zaro bog'liq, tizimli

ravishda tahlil qilingandagina jamiyatdagi ma'naviy muvozanat, tarixiy vorislik va milliy o'zlikni anglash masalalari to'la ro'yobga chiqishi mumkin bo'ladi. Faqat tanqidiy tahlil orqaligina tarixiy ongning instrumentalizatsiyasi, dunyoqarashdagi stereotipizatsiya va qadriyatlar ierarxiyasining yolg'on qurilishi kabi muammolarni bartaraf etish mumkin. Bu borada ijtimoiy falsafa faqat anglash emas, balki qayta qurishning ham falsafasidir.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash insoniyat tafakkurining yeng chuqur va murakkab qatlamlarini o'z ichiga oluvchi falsafiy kategoriyalardir. Ular jamiyatda avlodlararo ruhiy uzviylik, madaniy merosning saqlanishi, axloqiy tamoyillarning o'zaro almashuvi, ijtimoiy ongni belgilovchi determinantlar sifatida harakat qiladi. Ayniqsa, mustamlakachilik jarayonini boshdan kechirgan, o'z tarixiy identitetini qayta barpo yetish yo'lida harakat qilayotgan jamiyatlar — xususan, O'zbekiston uchun bu ikki tushuncha g'oyat dolzarb va strategik ahamiyatga yega.

Tarixiy ong – bu shaxs va jamiyat ongida tarixiy voqeliklar, hodisalar, shaxsiyatlar va qadriyatlar haqida shakllangan tushunchalar, munosabatlar va baholovlar majmuidir. Tarixiy ong faqatgina tarixiy faktlarni yeslab qolish yemas, balki ular asosida o'zligini anglash, hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy harakatni ongli ravishda boshqarish vositasidir. Bu ong jamiyatda muayyan madaniy, ma'naviy va siyosiy munosabatlarning shakllanishi va o'zgarishini belgilab beradi. Mamashokirov ta'kidlaganidek, tarixiy ong - tarixiy tafakkurning mezoni sifatida inson va jamiyat munosabatini ratsional anglashga xizmat qiladi [8].

O'zbekistonda tarixiy ong XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli buzilishlarga uchradi. Sovet mafkurasi tomonidan tarixiy ongni manipulyatsiya qilish, o'tmishni faqat “sinfiy kurash” mezonlari asosida talqin yetish, milliy tarixni inkor qilishga urinishlar tufayli tarixiy haqiqatlar jamiyat ongidan siqib chiqarildi. Ismoilova ta'kidlaganidek, mustabid tuzum Turkistonda diniy institutlarni inkor etish orqali xalqning tarixiy xotirasini zaiflashtirishga urinish olib brogan [9]. Mazkur tarixiy buzilishlar nafaqat tarixiy xotira, balki unga bog'liq bo'lgan aksiologik dunyoqarash - qadriyatlar tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Aksiologik dunyoqarash - bu jamiyatning yeng muhim axloqiy, yestetik, diniy va madaniy orientirlarini o'zida mujassam yetgan dunyoqarash bo'lib, u individual va kollektiv ongning ma'naviy tayanch nuqtasidir. Q.Nazarov tomonidan qayd etilganidek, qadriyatlar falsafasi-jamiyatning ma'naviy immunitetini shakllantiruvchi asosiy kontseptual maydondir [10].

Milliy qadriyatlarning yo'qolishi, ularning zamonaviy talqini bilan almashtirilishi yoki sun'iy tarzda buzilishi o'z-o'zidan aksiologik inqirozni keltirib chiqargan. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy rivojlanishida tarixiy ongni tiklash va qadriyatlar tizimini milliy o'zlik asosida qayta barpo yetish yo'nalishi asosiy ideologik strategiyalardan biriga aylandi. Otamuratov ta'kidlaganidek, milliy rivojlanishda tarixiy xotira va qadriyatlar uyg'unligi muhim axloqiy-ideologik poydevor sifatida xizmat qiladi [11]. Shu o'rinda “madaniy meros” tushunchasi

tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash o'rtasidagi vositachi sifatida maydonga chiqadi. Tarixiy obidalar, yozma va og'zaki manbalar, xalq urf-odatları va ramzlari - bularning barchasi tarixiy ongni saqlash va qadriyatlar tizimini mustahkamlash vositasidir. Burxonova ta'kidlaganidek, muzeylar — tarixiy xotirani tiklash va uning falsafiy interpretatsiyasi uchun muhim makondir [12].

Milliy ong va tarixiy tafakkurning uyg'unlashuvi "milliy g'oya" sifatida mustahkamlanadi. Milliy istiqlol g'oyasida ana shu elementlarning sintezi ko'zda tutilgan bo'lib, Qurbonmamedov va Ahmedova ta'kidlaganidek, tarixiy xotira shaxs ma'naviyatini takomillashtirishda asosiy tarbiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi [13]. Abdurahimov esa tarixiy merosning milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishdagi rolini ochib beradi [14]. Shunday qilib, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash — bu jamiyatning o'zini anglash va qayta yaratish jarayonida strategik vosita bo'lib, O'zbekiston misolida ularning uyg'unligida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yangilanishi, ma'naviy yangilanishning falsafiy asosi yotadi. Bu yangilanish yesa bir tomonlama rasmiy g'oyalar yemas, balki tarixiy haqiqat va qadriyatlarning ongli integratsiyasi bilan belgilanadi. Shu bois, tarixiy ongni faqat o'tmishni bilish yemas, balki u orqali bugunni va yertani anglash tamoyili sifatida talqin yetish lozim.

Muhokama. Yoshlar orasida tarqalayotgan yot g'oyalar va mafkuraviy bo'shliqlar ko'pincha tarixiy ongning zaifligi bilan bog'liq. Tarixiy xotira orqali inson o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglaydi, bu esa milliy birdamlik va ijtimoiy barqarorlikka olib keladi. Tarbiyaviy tizimda tarixiy ong asosida ma'naviy immunitetni shakllantirish bo'yicha alohida strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlilning markaziy tushunchalari bo'lib, ular orqali jamiyatning ontologik asoslari, bilish strukturasi, ijtimoiy voqelikni idrok etish va uni boshqarishning falsafiy mezonlari aniqlanadi. Ayniqsa, posttotalitar va milliy tiklanish davrini boshdan kechirayotgan O'zbekiston singari mamlakatlar uchun bu tushunchalar faqatgina nazariy anglash predmetigina bo'lib qolmay, balki ularning ijtimoiy taraqqiyoti, madaniy va g'oyaviy barqarorligi bilan uzviy bog'liq metodologik mezonlarga aylanadi. Tarixiy ong — bu jamiyat yoki individning o'z tarixiy mavjudligini anglash, tarixiy xotirani ijtimoiy va ma'naviy ongda shakllantirish holati bo'lsa, aksiologik dunyoqarash — bu jamiyatda ustuvor axloqiy, estetik, diniy va mafkuraviy qadriyatlarning ongli tarzda anglanishi va ongda ierarxik tarzda joylashishidir. Ijtimoiy falsafa esa mazkur tushunchalarni ularning genealogik ildizlaridan boshlab, zamonaviy sivilizatsiyaviy kontekstda baholash imkonini beradi.

O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy kontekstida tarixiy ongni shakllantirish jarayoni mustaqillikdan keyin jadal sur'atda boshlangan bo'lib, u sobiq totalitar mafkura va tarixiy dogmatikaga qarshi qaratilgan konseptual harakatlar bilan kechdi. Ayniqsa, tarixni faqat faktlar

yig'indisi emas, balki xalqning milliy o'zligini tiklash, uning ma'naviy yadrosini mustahkamlash vositasi sifatida talqin qilishga intilish yaqqol sezildi. Bu jarayon, avvalo, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezident I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"[15] tamoyilida o'z ifodasini topdi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixiy ong O'zbekistonda sotsial ongning muhim komponenti sifatida g'oyaviy-intelektual barqarorlikning kafolati sifatida ko'rilmogda. Ijtimoiy falsafa bunday yondashuvni tarixiy determinizm va aksiologik relativizm o'rtasidagi dialektik muvozanat sifatida tahlil qiladi. Chunki tarixiy ong faqat o'tmishni anglash emas, balki hozirgi va kelajakni belgilovchi, unga ma'no baxsh etuvchi ong shaklidir. U inson faoliyatining intensionallik darajasini belgilovchi axborot-kognitiv struktura sifatida namoyon bo'ladi[16].

Tarixiy ongni aksiologik dunyoqarashdan ajratib bo'lmaydi. Aksincha, har qanday tarixiy idrokda qadriyatlar (adolat, ozodlik, halollik, fidoyilik, vatanparvarlik) albatta jamiyatning etnosotsial tajribasi bilan uyg'unlashadi. Bu esa aksiologik dunyoqarashni jamiyatdagi dominant mental konstruksiya sifatida ta'riflashga asos beradi. Mustaqillikdan keyingi O'zbekistonda tarixiy ong va qadriyatlar sinteziga asoslangan yangi dunyoqarash modeli ishlab chiqildi. Bunda qadimiy sivilizatsiyaviy meros, diniy-ma'rifiy urf-odatlar, zamonaviy ilmiy tafakkur va ma'naviy yangilanish g'oyalari uyg'unlashtirildi. "Yuksak ma'naviyat – yuksak taraqqiyot asosi" tamoyili [15] bu yondashuvning aksiologik metaforasidir. Ammo tanqidiy yondashuvda bu tushunchalarning ideal holatda emas, balki murakkab sotsial-madaniy sharoitlarda shakllanayotganini ham e'tirof etish lozim. Tarixiy ongning mafkuraviy selektivligi, ya'ni ba'zi tarixiy voqealarning tanlab yoritilishi yoki boshqalarning butunlay inkor etilishi tarixiy relativizmga olib kelmoqda. Bu holat jamiyatda tarixni ijtimoiy ongda konstruktiv emas, balki konyunkturaviy vosita sifatida shakllantirish xavfini tug'diradi. Ijtimoiy falsafa bunday yondashuvni kritik tarixshunoslik doirasida baholab, tarixiy ongda empirik haqiqat va aksiologik interpretatsiya o'rtasidagi chegarani aniqlashtirishga chaqiradi[16].

Aksiologik dunyoqarash borasida ham bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, jamiyatda qadriyatlar ierarxiyasi ko'proq deklarativ va mafkuraviy tusda namoyon bo'lib, real ijtimoiy munosabatlarda ular doim ham dominant kuchga ega emas. Ikkinchidan, qadriyatlar tizimi zamonaviy texnologik globalizatsiya fonida universal g'oyalar bilan kolliziyaga kirishmoqda. Bu esa, ayniqsa, yoshlar ongida ma'naviy relativizm, individualistik hayot falsafasi va madaniy indifferentslik kabi hodisalarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy falsafa bu holatni qadriyatlarning transformatsiyasi, ularning ijtimoiy normativlikdan sub'ektiv afzalliklarga aylanishi deb talqin qiladi.

Xulosa. Yoshlar ongida tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy immunitetni shakllantirish orqali ularni zamonaviy tahdidlar va g'oyaviy bosimlardan asrash mumkin. Bu esa o'z navbatida, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston jamiyatining tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashi zamonaviy sivilizatsiyaviy tahdidlar (g'oyaviy bosim, axborot xavfsizligi, ideologik asimmetriya) sharoitida ijtimoiy barqarorlik va milliy birligini saqlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Biroq bu tushunchalar faqat normativ darajada emas, balki ontologik va gnoseologik asosda tahlil etilishi, tanqidiy tafakkur mezonlaridan o'tkazilishi zarur. Aks holda, tarixiy ong taqlidga, qadriyatlar esa mafkuraviy stereotiplarga aylanib, jamiyatning ijtimoiy dinamizmini sekinlashtiradi. Shu asosda, ijtimoiy falsafa tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni faqat ma'naviy ko'rsatkich emas, balki jamiyatning umumiy rivojlanish dinamikasini belgilovchi konseptual mexanizm sifatida tahlil qiladi. Aynan ushbu yondashuv orqali ijtimoiy barqarorlik, madaniy uzluksizlik va g'oyaviy izchillik ta'minlanadi.

Falsafa – insoniyat tafakkurining yuksak shakli bo'lib, u har doim mavjudlik mohiyati, insonning olamdagi o'rnini, hayot ma'nosi, qadriyatlar va haqiqatlar to'g'risidagi savollarga javob izlab kelgan. Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shu savollarning mohiyatini yorituvchi, ularning tahlilini insoniy ong, ijtimoiy xotira, qadriyat tizimlari, identitet va madaniy davomiylik bilan bog'lovchi asosiy falsafiy kategoriyalar sirasiga kiradi. Ijtimoiy falsafa kontekstida bu ikki tushuncha nafaqat falsafiy nazariyani, balki jamiyatning axloqiy, madaniy va tarixiy o'zlikni anglash yo'nalishlarini ham aniqlab beradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy o'zlik inqirozga uchragan bir davrda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning uyg'un tahlili dolzarb falsafiy masalaga aylanmoqda.

Tarixiy ong – bu insonning o'z o'tmish tajribasi, madaniy merosi va tarixiy haqiqatni anglash orqali zamonaviylikni tushunishga qaratilgan reflektiv qobiliyatidir. U nafaqat voqealarni yodda saqlash, balki ularni ma'nolash, ulardan ma'naviy saboq chiqarish orqali ijtimoiy ongning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. G.P. Vyjletsov fikricha, falsafa tarixida uch asosiy bosqich bo'lib, har bir bosqichda tarixiy ong alohida shakl va mazmunda ifodalangan. Birinchi davrda (miloddan avvalgi VII asrdan milodiy XVI asrgacha) tarixiy ong kosmologik va teologik asosda shakllangan bo'lib, universal mavjudlik – bo'lishning asosiy sababi (Koinot, Tabiat yoki Xudo) orqali insoniy hayotni tushuntirishga urinilgan. Bu bosqichda oliy qadriyat sifatida universal Baho ilgari surilgan [17].

XVII–XIX asrlarda tarixiy ong ilmiy gnoseologik kontekstda shakllana boshladi. Insoniyat o'z ongini tashqi olamni bilish vositasiga aylantirib, tarixni ilmiy bilish ob'ekti sifatida ko'ra boshladi. Bu yerda tarixiy ong aniq-ratsional asosga ega bo'ldi, ammo ayni paytda insoniy mavjudlikdagi qadriyatlar, erkinlik, adolat va ma'naviylik chetda qoldi. XIX asr oxiri va XX asr

boshida bu vaziyat o'zgardi: jamiyatning bilimga asoslangan konstruktivistik yondashuvi insoniyatni ma'naviy inqirozga olib keldi. Ana shunday sharoitda aksiologik dunyoqarash tarixiy ongni yangi nuqtai nazardan talqin qilishga imkon berdi – qadriyatlar va ma'naviylik asosida[18].

Aksiologik dunyoqarash – bu inson va jamiyatning dunyo va o'ziga bo'lgan munosabatida qadriyatlarni markazga qo'ygan ong shaklidir. U ob'ektiv (ijtimoiy) va sub'ektiv (shaxsiy) qadriyatlar tizimi asosida jamiyatning axloqiy-madaniy koordinatalarini belgilaydi. Falsafiy ma'noda aksiologik dunyoqarash insonning kelajakka ochiqligida, ya'ni mavjud bo'lmagan holatga nisbatan ideal motivatsiyasida ifodalanadi. V.I. Plotnikov tomonidan ilgari surilgan “aksiologik munosabat” tushunchasi aynan shu jarayonni tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu munosabat insonning qadriyatlar olamiga sub'ektiv yo'nalganligini, ammo u orqali ob'ektiv madaniyat va tarixiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini anglatadi[18].

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash o'zaro integratsiyada insonni shunchaki ijtimoiy mavjudot emas, balki tarixiy va qadriyatli mavjudot sifatida yoritadi. Inson o'z o'tmishini eslaydi, unda qadriyatlarni izlaydi, ularni hozirgi ongida qayta ishlab, kelajakni loyihalaydi. Bu uch qatlamli vaqt paradigmasi – o'tmish, hozirgi va kelajak – aynan aksiologik dunyoqarash orqali izchil va izohli tarzda mazmunlantiriladi. Shuning uchun ham tarixiy ongda saqlanadigan xotiraviy bilimlar faqat faktologik emas, balki qadriyat asosidagi identifikatsiyalangan haqiqatlardir[19].

Aksiologik dunyoqarash, ayniqsa, identifikatsiya jarayonida muhim o'rin egallaydi. M. Shelerning ta'kidlashicha, shaxs – bu o'zini qadriy asosda anglay oladigan mavjudotdir. Demak, tarixiy ongning individual shakli bo'lmish “men kimman” savoli aynan aksiologik asosda hal etiladi [20]. Bu fikrni davom ettirgan A.S. Lappo-Danilevskiy tarixiy ongni qadriy ong deb talqin qilgan, ya'ni tarixiy voqealarni baholashda inson o'z qadriyatlar tizimiga tayanadi [21].

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy muhitda bu ikki tushuncha ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tarixiy ongni rekonstruksiya qilish, uni aksiologik mezonlarda talqin qilish zarurati tug'ildi. Chunki tarixdan ajralgan ong – identitetsiz ongidir. Identitetsiz shaxs esa boshqaruvga yaroqsiz, maqsadsiz, mustaqil tafakkurdan yiroq bo'ladi. Shu jihatdan tarixiy ong – bu ijtimoiy ruhning asosiy strukturasi, aksiologik dunyoqarash esa uning mazmunidir. Ular jamiyatda muvozanat, barqarorlik va axloqiy intizomni ta'minlovchi falsafiy koordinatalarni belgilaydi.

Shunday qilib, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash falsafiy fikrda nafaqat nazariy, balki metodologik vosita sifatida ham harakatga ega. Ular orqali inson jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, qadriyatlar tizimini ishlab chiqadi va o'z mavjudligini ma'naviy asosda anglab yetadi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv bu ikki tushunchani o'zaro aloqador, bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro birlashgan metafizik birlik sifatida ko'radi. Bunday yondashuv ijtimoiy barqarorlik, madaniy vorislik va shaxsiy erkinlikni mustahkamlashda muhim nazariy asosni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gadamer H.-G. Haqiqat va metod. Moskva: Progress, 1991. – 528 b.
2. Assmann J. Cultural Memory and Early Civilization. Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 294 p.
3. Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. Cambridge: Harvard University Press, 1989. – 601 p.
4. Ricoeur P. Memory, History, Forgetting. Chicago: University of Chicago Press, 2006. – 612 p.
5. Абдуллажанова Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалс. фан. номз. дис. – Тошкент: ЎзМУ, 2006. – 151 б.
6. Мирахмедов Ж.М. Ўзбекистоннинг миллий-маънавий ҳавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти: Фалс. фан. PhD дис. – Қўқон: ҚДПИ, 2021. – 138 б.
7. Багно И.Г. Цивилизационные трансформации: кризис идентичности и поиск общего пути // Философские науки. – 2000. – № 3. – С. 96–97.
8. Мамашокиров С. Тарихий тафаккур мезони // Тафаккур. – 1999. – № 4. – Б. 42.
9. Исмоилова Д. Мустабид тузумнинг Туркистондаги диний сиёсати // Ўзбекистон тарихи. – 2003. – № 1. – Б. 33.
10. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. – 95 б.
11. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2005. – 96 б.
12. Бурхонова С. Музей – тарихий хотирани тиклаш маскани // Мулоқот. – 2004. – № 6. – Б. 44.
13. Курбонмамедов А., Аҳмедова С. Историческая память в духовном совершенствовании личности // Миллий истиқлол ғояси тарғиботининг илмий асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 21.
14. Абдурахимов Б. Тарихий мерос – миллий истиқлол мафкурасининг пойдевори // Мозийдан садо. – 2000. – № 3. – Б. 17.
15. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 320 b.
16. Nazarov Q.N., To'ychiev B.T., Xaydarov X. va boshq. Ijtimoiy falsafa: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2008. – 255 b.

17. Выжлецов Г.П. Философия в зеркале времени. – М.: Академический проект, 2004. – С. 62–64.
18. Плотников В.И. Философия аксиологического отношения. – Екатеринбург: УрФУ, 2010. – С. 382–401.
19. Козина Н.Г. Аксиологическая идентификация личности. – Пермь: ПГТУ, 2007. – С. 18–25.
20. Шелер М. Избранные произведения. – М.: Мысль, 1994. – С. 160.
21. Лаппо-Данилевский А.С. Методология истории. – СПб., 1910. – С. 190.